# Termiz shahrida 18 may kuni 4 ta mahalla fuqarolar yig’inida rais (oqsoqol) saylovi bo’lib o’tadi




Termiz shahrida 18 may kuni 4 ta mahalla fuqarolar yig’inida rais (oqsoqol) saylovi bo’lib o’tadi

Termiz shahrida joriy yil 16 may kunidan boshlangan saylovlar hozirgi kunga qadar 8 ta mahalla fuqarolar yig’inlarida bo’lib o’tdi. Saylovlar bo’lib o’tgan barcha mahallalarda ovoz berish jarayonlari qonunchilik talablariga asosan, ochiq va shaffof tarzda o’tkazildi. Jarayonlarni aholi vakillari bevosita kuzatib borishlari uchun sharoitlar yaratib berildi.

Har bir mahallada o’tkaziladigan saylov jarayonlariga shahar ko’maklashuvchi komissiyasi a’zolari biriktirilgan bo’lib, ularga saylovlarning belgilangan tartibda amalga oshirilishini taminlash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, jarayonlarda shahar Kengashi deputatlari ham ishtirok etishib, saylov jarayonlarining borishini nazorat qilib

borishmoqda.

Bugun shahrimizning 4 ta mahallasida, “Chegara”, “Do’stlik”, “Nurli kelajak” va “Farxod” mahallalarida mahalla raisligi (oqsoqoli) uchun saylovlar bo’lib o’tadi.

Fotolavhada “Bog’zor” mahallasida o’tkazilgan saylov jarayonlari

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

